

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Andijon davlat universiteti

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va
amaliyoti kafedrası katta o'qituvchisi A.Badalovning

**XALQARO TERRORIZMNING MAZMUN-
MOHIYATI VA BUZG'UNCHILIK JIHATLARI**
mavzusidagi

REFERATI

Андижон-2014

**MAVZU: XALQARO TERRORIZMNING MAZMUN-MOHIYATI VA
BUZG'UNCHILIK JIHATLARI**

KIRISH

ASOSIY QISM

**I.XALQARO TERRORIZMNING MAZMUN-MOHIYATI, BUZG'UNCHILIK
JIHATLARI**

**II.XALQARO TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY
ASOSLARI**

**III. XALQARO TERRORIZMNING VILOYATIMIZDAGI HURUJLARI VA ULARGA
QARSHI KURASH, ULARNI OLDINI OLISH**

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mustaqillik ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, jumladan ma'naviy hayotdagi yangilanish jarayonini tub o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi: sobiq sovet tuzumining ateistik xujumkorlik siyosatiga barham berildi, vijdon erkinligi qonun orqali kafolatlandi.

Din va davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyilini – uning asosini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61 – moddasida shunday deyiladi: “Diniy tashkilot va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi”¹.

Bugungi kunda Respublikamizda 15 ta noisloviy konfessiyaga mansub 186 ta tashkilot emin-erkin faoliyat olib bormoqda va barcha bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib bormoqda.

Qolaversa, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan holidir. Shu bilan birga, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsada, bu dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmaydi. Zero, biror dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar ham jamiyatning tarkibiy qismi va shu sababli din fuqarolik jamiyatida o'z mavqeiga ega.

Davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalovchi boshqa bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni ham ma'naviyatning uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tashqi shart – sharoitlar yaratishga harakat qiladi.

I.A.Karimovning Oliy Majlisning XIV sessiyasida so'zlagan nutqida bu tamoyil o'zining yorqin ifodasini topgan: “Mamlakatimiz demokratik tamoyillar, ilm-fan yutuqlari, yuksak texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bilan birga muqaddas dinimizni, milliy o'zligimizni asrab-avaylab yashashni maqsad qilib qo'yganmiz”¹.

Dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatida dindorlarning huquqiy maqomi va davlat tomonidan o'tkazilayotgan tadbirlarda diniy konfessiyalar haqidagi qonunlarning hayotga tatbiq etishdek ikki muhim jixat ham bor.

Konstitutsiyamizda bu masala o'z echimini topgan va dunyodagi rivojlangan mamlakatlardagi huquqiy – me'yoriy talablarga to'la javob beradi. Har qanday dinga e'tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo'yilganini ta'minlovchi Konstitutsiyaning 31 – moddasida, jumladan shunday deyiladi: “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi”².

Mazkur qoidada dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan asosiy tamoyillar o'z ifodasini topgan:

- dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
- diniy e'tiqodlarini fuqarolarning, yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy tiklanish uchun iqtisodiy ahloqiy qadriyatlarni qator topilishirish ishida turli diniy uyushmalarining imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan murosalar qilish yo'llarini izlash zarurati;
- dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'ymaslikni e'tirof etish.

¹Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch qudratimizga, xalqimizning bukilmas irodasiga bog'liq. Toshkent., “O'zbekiston” 2004 y. 8 – bet.

²O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O'zbekiston”, 2003 y. 12 – bet.

Davlatning dinga munosabatidagi asosiy hususiyati – bu dinning siyosatga aralashmasligi. Zero, har qanday din, birinchi o'rinda ma'naviy-ahloqiy jihatni o'z ichiga oladi.

Hech qaysi din o'zida halqning ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatlarining barchasini qamrab olishga da'vogarlik qilmaydi. Aks holda u din bo'lmay qoladi. Huddi shu asosda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57 – moddasida diniy – siyosiy partiyalar tuzish taqiqlangan.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilot to'g'risida”gi Qonun 1991 – yilda qabul qilingan bo'lib, 1993 – yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo'lib keldi.

1990 yillarning boshlarida xukumatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlar suiste'mol qilinishi, masjid qurish kompaniyaga aylanib ularning soni 89 tadan 5000 tagacha etdi. Ularning aksariyati rasmiylashtirilmagan, malakali imomlar bilan ta'minlanmagan (95,8 % diniy ma'lumotsiz) va zarur sharoitlar bo'lmagan holda faoliyat yuritib, turli “Peshvo”lar masjidlarini o'z uyalariga aylantirishga harakat qiladilar.

Ba'zi diniy tashkilotlarning diniy rahbari xorijiy fuqarolar bo'lish, hech qanday diniy ma'muriyatga ega bo'lmay, moliyaviy yordam holatiga diniy tashkilotlarga rahbar bo'lib olib, buzg'unchilik, missionerlik bilan shug'ullanar va o'z saflarini mahalliy millat vakillari hisobiga kengaytirishdan iborat edi.

Davr talabi asosida “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonuni tubdan o'zgartirish zarurati tug'ildi va 1998 yil 1 may kuni yangi tahrirda qabul qilindi.

Kiritilgan o'zgarishlar nimalardan iborat edi?

Jumladan, Qonunning 8 moddasida asosan diniy tashkilotlar 18 yoshga to'lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan 100 nafardan kam bo'lmagan O'zbekiston fuqarolari tashabbusi bilan tuzilishi muayyan konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va yo'naltirib borish uchun Respublika bo'yicha yagona markaziy boshqaruv organi tuzilishi haqidagi qoida mustahkamlab qo'yildi.

Shuningdek, tegishli diniy ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston fuqarolari diniy tashkilotlar rahbarlari etib saylanishlari, bunday lavozimga istisno holatda horijiy fuqarolar nomzodlari Vazirlar mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishib olinishi belgilab qo'yildi.

Qonunning 9-moddasiga muvofiq diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tuzishga haqlidirlar.

Qonunning 5-moddasida bir konfessiyadagi dinlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan hatti – harakatlar (prozeltizm) shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi.

Qonunning diniy adabiyotlarga tegishli bo'lgan 19-moddasi ham bir qator o'zgartirildi: Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga mo'ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot – materiallari O'zbekiston Respublikasi Qonun xujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir: Mazkur qoida O'zbekiston hududiga diniy adabiyotlarning olib kirilishini tartibga soladi.

Tarixdan ma'lumki, har qanday davlatning barqarorligi undagi halqlar, millat va elatlarning huquq va erkinliklari faqatgina qonuniy xujjatlarda belgilanishiga emas, balki ularning amalda qay darajada o'z tasdig'ini topishiga ham bog'liqdir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda diniy tashkilotlarning soni o'sdi. 1990 yilda Respublikada 119 ta diniy tashkilot 2 ta diniy o'quv yurti mavjud bo'lgan bo'lsa bugungi kunda 2186 ta diniy tashkilot erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Rus Provoslav cherkovining Toshkent va O'rta Osiyo Eparxiyasi, Evangel xristian – baptistlar cherkovi, Rim – katolik cherkovi, To'liq Injil xristianlari cherkovi, O'zbekiston Bibliya jamiyati faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek 1987 masjid, 163 ta xristian cherkovi, 8 ta yahudiylar sinagogi, 6 ta Bahoiylar jamoasi, 1 ta Krishnani anglash jamiyati, 1 ta Budda ibodatxonasida fuqarolar erkin ibodat qilishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. O'quv yurtlari soni 2 tadan 13 taga etdi.

Uzoq davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O'zbekiston halqi avloddan – avlodga o'tib kelgan tarixiy qadriyatlari va o'ziga xos an'analarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Buyuk istiqlol esa ularning har tomonlama rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berdi.

Eng avvalo asrlar davomida umumiy qadriyat darajasiga ko'tarilgan diniy bayramlar – Ramazon va Qurbon hayitlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan (№ 193. 11.04 91 y va № 221 20.06.1991) dam olish kuni deb e'lon qilingani va ular davomiy ravishda, erkin nishonlana boshlaganini ta'kidlash zarur.

Din sohasida olamshumul ahamiyat kasb etgan ulamolarning merosini o'rganish, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilgan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosini tiklash davlat siyosat darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Imom Buhoriy, B.Naqshband, N.Kubro, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burxonidin Marg'iloniy, Abduxoliq G'ujduvoni Xo'ja Ahror Valiy kabi mutafakkirlarning yubileylari o'tkazildi ularning islom nazariyasi, tarixi, falsafasi va huquqshunosligi, madaniyati va axloqi masalalarini chuqur o'rganish ilmiy tadbirlarda etakchi o'rinlar egallay boshladi.

Qur'oni Karimning tarjima va tafsiri, I.Buxoriyning 4 jildli to'plami, B.Marg'iloniyning "Al - Hidoya" asari, I.Termiziyning "Sunnat at – Termiziy", Abu Lays Samarqandiyning "Tanbexul - g'ofilin" asarlari, Bibliya, payg'ambarlirimiz tarixlari ilk o'zbek tilida chop etildi.

Eski masjid, maqbara va ziyoratgohlar ta'mirlanib yangilari bunyod etildi, diniy bilim yurtlari tarmog'i kengaytirilib, sifat va saviyasi takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Farmoni bilan Toshkent Islom Universiteti tashkil etilib ko'p qirrali ta'lim beruvchi ilmiy tadqiqot markaziga aylandi.

Har yili minglab yurtdoshlarimiz davlatimiz homiyligida muqaddas haj ziyoratiga borib kelmoqdalar.

Xalqimiz diniy va ma'naviy qadriyatlarining hozirgi demokratik jamiyat qadriyatlari bilan uyg'unlashishi respublikamizning kelajakda yanada ravnaq topishi, jahon hamjamiyatiga qo'shilishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

I. XALQARO TERRORIZMNING MAZMUN-MOHİYATI, BUZG'UNCHILIK JIHATLARI

Bugungi kunda terrorizm Er yuzida insoniyatga, uning taraqqiyotiga dahshat solayotgan siyosiy voqealikka aylanib qoldi. Bu ijtimoiy-siyosiy ofatni shunchaki qoralash bilan bartaraf etib bo'lmaydi. Shu bois, bashariyat istiqboliga tahdid solayotgan terrorizmning asl tub mohiyatini o'rganish, uni yuzaga keltirib chiqarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma'naviy omillarni chuqur tadqiq etib aniqlash, siyosiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Terrorizm – o'zi nima? Uning siyosiy-falsafiy mohiyati nimadan iborat? Qanday ko'rinishlarga ega? Qanday ijtimoiy omillar uni yuzaga keltiradi? Undan batamom xalos bo'lish mumkinmi? Shu kabi savollarga javob topish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Terror (lot. Terror – qo'rqitish, dahshat solish ma'nosini anglatadi) – zo'ravonlik va kuch ishlatish yo'li bilan siyosiy muholifatni bostirish demakdir. Terrorizm odamlarning hayotiga chang solish, suiqasd qilish, ularni qo'rqitish, dahshat solish, tazyiq o'tkazish demakdir.

Terrorizm aslida kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgan ijtimoiy ofat emas. U insoniyat tarixida azaldan bor bo'lgan, bugungi kunda ham sodir bo'layotgan, jaholatga, buzg'unchi g'oyalarga asoslangan siyosiy faoliyat usuli, vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Инсониятнинг қайси бир тарихий ривожланиш босқичини олиб қарамaylik, barchasida jamiyat hayoti u yoki bu tarzda sodir bo'lgan bir guruh kishilarning boshqa bir guruhga nisbatan olib borgan zo'ravonligini ko'rishimiz mumkin. Tabiatda «terror», ya'ni zo'ravonlik qonuniyat tarzida amal qiladi. Nisbatan kuchsiz, zaif bo'lgan jonzodlar, ularga nisbatan kuchli bo'lgan yirtqichlar uchun emish bo'lib xizmat qiladi.

Qur'oni Karimning «Moida» surasida, jamiyat hayotida sodir bo'ladigan zo'ravonlik va bo'zg'unchilik jinoyatlari va ularning jazolari to'g'risida aytilgan bo'lib, quyidagicha bayon qilingan: Odam (alayhissalom) ning ikki farzandi – Qobil va Hobil o'rtasida bo'lib o'tgan mujodala – Qobil o'z birodari Hobilni nohaq o'ldirgani to'g'risida xabar berilib, bu qissa orqali yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi doimiy kurash tasvirlangan. Bu fojea Er yuzidagi nohaq qon to'kilish fojealarining birinchisi edi. Suraning 30-oyatida Qobil o'z birodari Hobilni nohaq o'ldirgini to'g'risida aytilib, 32-oyatda shunday deyiladi: «Ana o'sha (fojea) sababli bani Isroil zimmasiga (shunday farmonni) yozib qo'ydik: kimki biron jonni o'ldirmagan va erda buzg'unchilik qilib yurmagan odamni o'ldirsa, demak, go'yo barcha odamlarni o'ldiribdi va kimki unga hayot ato etsa (ya'ni o'ldirishdan bosh tortsa), demak: go'yo barcha odamlarga hayot beribdi. Ularga (bani Isroilga) payg'ambarlarimiz menga shunday hujjatlar keltirdi. Shundan keyin ham ulardan ko'plari er yuzida (qon to'kish bilan) haddan oshib yurguvchidirlar...». Mazkur oyatdan shuni anglash mumkinki, bir kishini halokatdan saqlab qolish esa butun jamiyatni asrab qolishdir.

Insoniyat jamiyati tabiatdan ajralib chiqqandan buyon son-sanoqsiz terrorlarni boshidan kechirgan.

Terrorizmning asl mohiyatini siyosat falsafasi, siyosatshunoslik nuqtai nazaridan olib qarash, uni chuqur ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, jamiyat hayotida yuzaga kelish xususiyatlarini tadqiq etish va uni bartaraf etish usullari, vositalarini ishlab chiqishni talab etadi. Zero, terrorizm bugunda insoniyat ravnaqiga eng katta xavf solayotgan tahdid bo'lib qolmoqda. Xalqaro miqyosda faoliyat ko'rsatayotgan terrorizmga qarshi dunyo progressiv kuchlari birlashib kurash olib bormasa, bu ofat Er yuzida insoniyat boshiga ko'z ko'rib, quloq eshitmagan kulfatlarni keltirishi mumkin. Hayot shuni ko'rsatmoqdaki, bunday ijtimoiy-siyosiy balodan hech bir davlat, jumladan, O'zbekiston ham chetda emas.

Terrorizm qanday ko'rinishlarga ega? Hayotda eng ko'p uchraydigan, ammo eng kam e'tibor beriladigan terror turi – bu oilada sodir qilinadi. Xalqaro statistika ma'lumotiga ko'ra yiliga 10 milliondan ortiq oilalarda zo'ravonlik sodir qilinar ekan.

Terrorizm tushunchasi falsafiy, ijtimoiy va siyosiy mazmunga ega bo'lib, birinchisi – eng umumiy, ikkinchisi – kengroq ma'noda, uchinchisi esa nibatan torroq ma'noga ega.

Falsafiy ma'noda terror – tabiat, jamiyat va inson hayotida amal qiluvchi zo'ravonlik, buzg'unchilikka asoslangan faoliyatni anglatadi. Terrorizm insoniyat tarixida sodir bo'lgan qonli urushlar, xalq isyonlari, harbiy fitnalar, g'alayonlar ko'rinishida ham amal qilib kelgan.

Hozirda, terrorizm quyidagi: milliy ayirmachilik, etnik, diniy ekstremistik, siyosiy, iqtisodiy terrorizm, axborot terrorizmi kabi shakllarda namoyon bo'lmoqda.

Milliy ayirmachilik, etnik xarakterdagi terrorizm nisbatan oz sonli etnik guruhlarining o'z manfaatlarini himoya qilish, o'zga millat hukmronligiga qarshi kurash usuli, vositasi sifatida qo'llanmoqda. Terrorizmning bunday ko'rinishi dunyoning juda ko'p mintaqalarida, mamlakatlarida avj olgan, azaliy davom etib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy ofatdir. Qadimdan bir hududda yashab kelayotgan turli etnik guruhlarining o'zaro murosa qilib yashay olmayotganligi va geosiyosiy, diniy e'tiqod jihatdan farqi kabi omillar oqibatida yuzaga kelayotgan bunday terroristik hurujlardan tinch aholi jabr ko'rmoqda va qurbon bo'lmoqda.

Etnik xarakterdagi terrorizm diniy ekstremistik mazmundagi buzg'unchi g'oyalar bilan qorishib ketgan. Kichik Osiyoda Isroil va Falastin davlatlari o'rtasidagi, Hindistonda, Pokistonda, Turkiyada, Rossiyada, Buyuk Britaniyada, Bolqonda, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlarida sodir qilinayotgan terroristik hurujlar shular jumlasidandir.

Xalqaro terrorizmning yana bir ko'rinishi diniy ekstremistik mazmundagi buzg'unchi g'oyalar asosida sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, islom dini bayrog'i ostida uyushgan al-Qoida, vahhobiylik, «Hizbut-tahrir», «Hizbulloh», «Musulmon birodarlari», «Islom ozodlik partiyasi», «At-takfir val-Hijra», «Junud Alloh», «Jihod», «Turkiston islom harakati», kabi diniy – ekstremistik ruhdagi oqim va terroristik tashkilotlar dunyoning ko'plab mamlakatlarida qo'poruvchilik hurujlarini amalga oshirmoqdalar.

Terrorizmning yana bir ko'rinishi siyosiy xarakterda bo'lib, bevosita, to'g'ridan-to'g'ri siyosiy hokimiyatni egallashga qaratilgan bo'ladi. O'zlarining terroristik hurujlari bilan mavjud siyosiy hokimiyatga, tartibotga va alohida siyosiy etakchi hamda siyosiy elita faoliyatiga qarshi qaratilgan bo'ladi. Tarixdan shunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ayniqsa, AQSh va Rossiya tarixida terrorizmning bunday ko'rinishi juda ko'p sodir etilgan. Fikrimizga qo'yidagilar asos bo'ladi.

- 1865 yili – AQSh Prezidenti Avrayam Linqoln;
- 1881 yili - AQSh Prezidenti Jeyms Garfild;
- 1881 yili – Rossiya imperatori Aleksandr II;
- 1884 yili – Frantsiya Prezidenti Sodi Karno;
- 1900 yili – Italiya qiroli Umberto I;
- 1901 yili - AQSh Prezidenti Uilyam Makkinli;
- 1911 yili – Rossiya Bosh Vaziri P.A.Stolin.
- 1914 yili – Avstro-Vengriya shaxzodasi Frants Ferdinand.
- 1918 yili – Rossiya imperatori Nikolay II Romanov
- 1948 yili – Hind halqining siyosiy arbobi va etakchisi Maxatma Gondi.
- 1963 yili - AQSh Prezidenti Jon Kennedi.
- 1973 yili - Chili Prezidenti Salvador Alende.
- 1978 yili – Italiya Bosh Vaziri Aldo Moro
- 1981 yili - Misr Prezidenti Anvar Saodat
- 1984 yili – Xindiston Bosh Vaziri Indiro Gandi.
- 1986 yili – Shvesiya Bosh Vaziri Ulof Palme
- 1989 yili – Xindiston Bosh Vaziri Rodjiv Gandi
- 1991 yili - Eron Bosh Vaziri Baxtiyor
- 1996 yili – Isroil Bosh Vaziri Ishoq Rabin

2004 yili – Checheniston Prezidenti Ahmad Qodirovlar siyosiy xarakterdagi terrorizm qurboni bo'ldilar. Bu ro'yhatni yana davom ettirish mumkin.

Terrorizmning yana bir ko'rinishi ayrim olingan mamlakatda, davlat hokimiyati tepasida turgan ayrim siyosiy etakchi yoki guruhlarining o'z xalqiga ommaga nisbatan yurgizgan terrori hisoblanadi. Bunga tarixdan misollar keltirish mumkin. Terrorning bu turi – sobiq sho'rolar davlatida juda ko'p dahshatli tarzda amalga oshirilgan.

1918 – 1924 yillar - 6 yil ichida faqatgina Farg'ona vodiysida istiqloq uchun kurashgan 500 ming kishi «qizil terror» qurboni bo'lgan. Bir million kishi ochlikdan o'lgan. 1915 yili vodiya 2,2 million kishi yashagan bo'lsa, «qizil terror» tufayli 1924 yil oxiriga kelib vodiya 500 ming kishi qolgan, ya'ni 10 yil ichida 1 million 700 ming kishi halok bo'lgan.

Sho'ro davlatida XX asr 20 – 30 yillarida 84 ta kontslager bo'lgan. Ularga 50 mingdan ortiq mahbus yuborilgan.

1932 – 1933 yillarda Sho'ro davlati rahbarlarining o'z xalqiga qarshi terrori oqibatida 16 million kishi ochlikdan qurbon bo'ldilar. Butun mamlakat aholisi ochlikka giriftor qilindi.

1933 – 1945 yillarda Germaniyada hokimiyat tepasida bo'lgan Gitler boshchiligidagi fashistlar dunyo xalqlari boshiga ko'z ko'rib, quloq eshitmagan kulfatlar soldi. Ularning aybi bilan sodir qilingan II jahon urushi oqibatida Er yuzi aholisining 60 milliondan ko'prog'i qurbon bo'ldi.

- 1980 yillarda Kambodja (Kamputsiya) davlatida hokimiyatini zo'ravonlik bilan egallab olgan Pol – Pot va Ieng Sarilar tomonidan sodir qilingan terror oqibatida 3 million begunoh kishi qirib yuborilgan. Mamlakat aholisining to'rt dan bir qismi terror qurboni bo'ldi.

O'tgan asrning 80 – yillarida Sho'ro davlati rahbarlarining O'zbekistonda sodir etgan terrori butun bir millatni dunyo hamjamiyati oldida badnom qilishga qaratilgan edi. Buning natijasida 10 minglab mahalliy rahbar xodimlar qatag'on qilindi. Bunday xatti-harakatlarning asl maqsadi, mustabid tuzumni saqlab qolish uchun mahalliy xalq o'rtasida yangidan qo'rqinch instinktini yuzaga keltirishdan iborat edi. Terrorizmning har qanday ko'rinishi u yoki bu jihatdan bevosita yoki bilvosita siyosiy hokimiyatga, hukmronlikka erishish yoki bo'lmasa, o'zgalar hukmronligiga qarshi qaratilgan bo'ladi. Hozirgacha insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida ro'y bergan har qanday terroristik xurujlar buzg'unchilikka asoslangan bo'lib, o'z mazmun – mohiyati bilan bilan salbiy xarakterga egadir.

Ta'sir ko'rsatish ko'lami jihatidan terrorizm hududiy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda amal qiladi. Ayrim mamlakat yoki hududda sodir qilinadigan terrorizm - hududiy, bir necha mamlakatlarni o'z ichiga olgan. Er yuzining alohida mintaqasida sodir qilinadigan terroristik faoliyat mintaqaviy ko'rinishda bo'ladi. Er yuzining ko'plab mamlakatlarida, qit'alararo faoliyat ko'rsatuvchi terroristik tashkilotlar xalqaro terrorizmni tashkil qiladi.

Hozirda xalqaro terrorchilik markazlari mablag'lari evaziga mavjud konstitutsion tuzumga qarshi qo'poruvchilik, siyosiy arboblarni hayotiga suiqasd harakatlarini olib boruvchi tashkilotlarga uyushgan holda faoliyat ko'rsatmoqda.

Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirda dunyo miqyosida 500 dan ortiq terroristik tashkilotlar mavjud. Ular dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida o'zlarining manfur qiyofasini namoyish qilmoqda. Dunyoning barcha mamlakati terrorizm ofatidan o'zlarini to'la muhofaza qilingan, deb hisoblay olmaydi.

Turli xil ko'rinishdagi terroristik guruxlar o'zaro birlashish husiyatiga ham ega. Masalan, O'zbekiston hokimiyatini egallashga intilgan siyosiy guruhlar etakchilari (Salay Madaminov. A.Po'latov kabilar) diniy-ekstremistik kayfiyatdagi terroristlar Tohir Yo'ldosh, Juma Hojiev kabilar bilan o'zaro til biriktirib, birgalikda O'zbekistondagi qonuniy hokimiyatga, Prezidentga qarshi harakat qildilar. 1999 yil 16 fevral voqealari, 2000 yilda Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi bosqinchilik hurujlari shular jumlasidandir.

Har qanday terroristik faoliyatning mohiyati o'zgalar ustidan hukmronlikka yoki mavjud siyosiy-mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy tartibotga qarshi zo'rovonlik, dahshat solish, jismoniy kuch ishlatish orqali o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishishdan iborat. Shuning uchun ham terrorizm butun jahon afkor ommasi, progressiv kuchlar tomonidan qoralanmoqda. Halqaro

terrorizmning har qanday ko'rinishining qoralanishiga sabab muqlaqa begunoh kishilar, ayniqsa, norasida go'daklar, ayollar, onalar va keksalar uning qurboniga aylanayotganligidadir.

Markaziy Osiyoda va O'zbekistonda yashirin faoliyat ko'rsatishga urinayotgan g'ayri islomiy tashkilotlarning asosiylari – "Vahhobiy" oqimi va «Hizbut-Tahrir al-Islomi» diniy ekstremistik partiyalari bo'lib, bu yo'nalishlar mazmunan va harakat jihatidan o'z qamroviga «Islom uyg'onish partiyasi», «Adolat», «Islom tashkilotlari», «Tavba», «Hizbulloh», «Tablig'», «Uzun soqol», «E'dodchilar», «Akromiylar», «Nur», «Hizbun-Nusra» kabilarni oladi. Ularning asl maqsadi amaldagi konstitutsion demokratik tuzumni o'zgartirib, islomiy davlat qurish va davlatni shariat qonunlariga ko'ra boshqarishga qaratilgan.

1989 – 1991 yillarda faoliyat ko'rsatgan «Islom uyg'onish partiyasi» jangarilari Tojikistonda ko'p tartibsizliklar keltirib chiqargan va uning xunrezliklari asorati shu kunlargacha davom etib kelmoqda. Bu partiyaning tuzish tashabbusi diniy mutaassib (fanat) jamoalar orasida paydo bo'ldi. Ularning asosiy shiori-dunyoviy hokimiyatning barcha ishlarini dinlar bilan muvofiqlashtirilgan holda olib borish, qisqasi musulmon davlat barpo etish edi. Buni Afg'oniston misolida (Tolibonlar) ko'rish mumkin. Harakatning raisi Muhammad Sharif Himmatzodaning fikriga qaraganda, machit va madrasalarga siyosiy tashkilotlar maqomini berish kerak emish. U yana shunday deydi: «Islom hayotining barcha jabhalariga – iqtisod, siyosatga va boshqa sohalarga aralashishi kerak».

«Adolat» va «Islom lashkarlari» 1990 – 1992 yillar mobaynida Namangan viloyatidagi «Otavalixon» jome' masjidida Tohir Yo'ldoshev boshchiligidagi 100-200 kishidan iborat bo'lib, 60 dan ziyod guruhlardan tashkil topgan edi. O'sha paytlarda «Adolat» harakati faollari drujinalar tuzib, kechki payt o'z mahallasidan tashqarida yurgan erkak-ayollarni to'xtatib, ichkilikka qarshi kurash bahonasida begunoh kishilarni masjid ustunlariga bog'lab, er to'lalarda qiynoqqa solib, tan jarohati etkazar edilar.

«Hizbut-Tahrir al-Islomi» - sunniylik doirasidagi diniy siyosiy partiya bo'lib, 1952 yilda Quddus shahrida to'g'ulgan falastinlik Takiyiddin Nabahoniy tomonidan tashkil etilgan (Turkiyaning «Interpol» milliy markazi ma'muriyati ma'lumotiga ko'ra, bu tashkilot taxminan Buyuk Britaniya mahfiy xizmatining bevosita yordami asosida tashkil topgan va AQSh kompartiya tomonidan qo'llab-quvvatlangan). Nabahoniy rahbarligida bu partiyaning dasturlari va qonunlari ishlab chiqildi. Ularga ko'ra, partiya a'zolari o'rtasida mansabdorlik vazifalari belgilanib, xalifalik davlatiga Amril A'zam yoki Ulug' amir boshchilik qilish lozim emish. Partiyaning asosiy maqsadi musulmon davlatlari o'rtasida xalifalik davlati g'oyalarni targ'ib qilib, kelajakda er yuzida yagona islomiy davlat tuzishdan iborat.

Nurchilar. Asoschisi turkiyalik Said Nursiy Badiuzzamon bo'lib, mazkur tashkilotning asl maqsadi - amaldagi hokimiyatga qarshi chiquvchi o'ta diniy, mataassib kishilarni tarbiyalashga qaratilgan. Oqim vakillari o'zlariga yangi a'zolari jalb etishda birinchi navbatda, nurchilar jamoasi faoliyatini siyosatga aralashmaydi degan fikrni singdirishga harakat qildilar. Aslida bu bir niqob bo'lib, ularning hatti-harakati soyasida siyosiy niyatlar yotadi.

«Nurchilar» harakati ayniqsa Turkiyada keng rivojlangan bo'lib, ta'lim sohasida salmoqli nufuzga ega. Ular o'zlarining bir necha gazeta va jurnal nashrlariga ega. Bu oqimning yurtimizga kirib kelishi 1992 yildan boshlab kuzatilgan. Dastavval nurchilarning g'oyalari turkiyalik ekstremistlarning moddiy va ma'naviy ko'magida tarqatilgan. Respublikamiz tegishli organlarining keskin choralari natijasida ular endilikda yashirin harakat qilishga urunmoqdalar.

«Nurchilar» harakati saflarini asosan yoshlar tashkil qiladi. Harakat tomonidan chop etilgan da'vat varaqalari yoshlar o'rtasida tarqatildi. Shu tufayli bu harakatga ma'naviy-g'oyaviy tarbiyasi sust yoshlar aralashib qolmoqda. Mazkur harakat Markaziy Osiyodagina emas, balki bir qator janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida, hatto AQSh da ham tarqalgan.

Sobiq Ittifoq davrida ham O'zbekistonning Markaziy Osiyoda o'z mavqei va o'rni bo'lib, uni o'rab turgan qo'shni davlatlarga ilm-fan, madaniy-ma'rifiy, moddiy ishlar o'tkazib kelgan. Shu bois ham aynan O'zbekistonda yuqorida qayd etilgan diniy ekstremistik oqimlar rivojlantirilsa, ularning qo'shni davlatlarga tarqatish osonroq bo'larmish.

Ana shu rejaga ko'ra bo'lsa kerak, respublikamizda diniy ekstremistik oqimlar, tashkilotlar vujudga kela boshladi. Chunonchi «O'zbekiston islom harakati (1990-1992 yillarda o'z faoliyatining boshlagan)» mamlakatimizda g'ayriqonuniy faoliyat yuritayotgan «vahhobiylik oqimining tashkiliy tuzimi sifatida, oqim tarafdorlarini yagona maqsadga yo'naltirishga, harbiy-siyosiy rahbarlikni oqimning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan. Harakatning rahbari o'zini «Amiral al-mo'minin» deb e'lon qilgan jinoyatchi Tohir Yo'ldoshovdir. Uning o'zi Ben Laden rahnamoligidagi xalqaro terroristik tashkilotlarning «Shuaro» kengashiga a'zo edi.

- «O'zbekiston islom harakatining asl maqsadlariga to'xtalib o'taylik». Ular quyidagicha:
- O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni izdan chiqarish;
- dinlararo, milatlararo adovat qo'zg'otish;
- ommaviy tartibsizlik va fuqaroviy bo'ysunmaslik namoyishlarini tashkil etish;
- O'zbekistonda amaldagi davlat tuzimiga nisbatan jihod e'lon qilib, Konstitutsion tuzumni ag'darib, boshqarishni qo'lga kiritish;
- Vahhobiylik mafkurasini amalda tatbiq etib, xalqni o'zining siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga bo'ysundirish;
- Dunyoda yagona islomiy davlat Qurish maqsadida, islomni tan olgan barcha davlatlarni birlashtirish, bunga bo'ysunmagan davlatlarga jihod e'lon qilish;
- Markaziy Osiyo xalqlarining milliy madaniyatini tan olmaslik, arab madaniyati va g'ayri islomiy ekstremistik mafkurasiga bo'ysundirish.

Markaziy Osiyoda, shu jumladan O'zbekistonda yashirin harakat qilayotgan diniy ekstremistik va terroristik oqimlar va tashkilotlarning mazmun-mohiyatini umumlashtirib quyidagicha sharqlash mumkin.

Shu tariqa, sho'ro davridan meros bo'lib qolgan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yuqorida qayd etilgan sabablar bilan qo'shilib diniy ekstremistik oqimlarning shakllanishi va faolashuviga sharoit yaratdi.

II. XALQARO TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING MA'NAVIY-MA'RIFIY ASOSLARI

XXI asr boshida insoniyat taqdiriga, uning taraqqiyotiga, ravnaqiga tahdid solayotgan halqaro terrorizm va uning har qanday ko'rinishiga qarshi qanday kurash olib bormoq lozim? Uning tub ildizini qay yo'sinda qo'porib tashlash darkor?

Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov ta'rifi bilan aytganda: «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirisha olish mumkin». Terrorizm - tom ma'noda jaholatdir. Buzg'unchi g'oyalarga asoslangan xalqaro terrorizm va uning har qanday ko'rinishi kishilik jamiyatining o'tmishida ham, bugunida ham butun-butun xalqlar boshiga og'ir kulfatlar yog'dirmoqda. Har yili uning tajovuzidan yuz mingdan ortiq begunoh kishilar qurbon bo'lmoqda, jamiyat rivojlanishi, ayrim davlatlar, mintaqalar va insoniyat sivilizatsiyasining taraqqiyotiga jiddiy tahdid solmoqda va mudhish oqibatlar keltirib chiqarmoqda.

Etuk ma'naviyatli, ma'rifatli shaxs jaholatdan yiroq bo'ladi. Terrorizmning har qanday ko'rinishi esa aynan ma'rifatsizlikka asoslangan jaholatning achchiq mevasi sifatida yuzaga keladi. Terrorizm jaholatning bir ko'rinishi ekan, jamiyat hayotida unga yondosh bo'lgan haqsizlik, inson qadr-qimmatining toptalishi, huquqlarining poymol qilinishi, ijtimoiy zo'rovonlik kabi jaholat turlari u bilan egizakdir. Biri ikkinchisini yuzaga keltiradi va biri ikkinchisidan ozuqlanadi.

Dunyo bo'yicha qurol savdosining o'sishi va tarqalishi ham terrorizmning jahon miqyosida keng ko'lamda avj olishiga sabab bo'lmoqda. «Nyu York Tayms» gazetasining G'arb rasmiy kishilari hamda engil qurol savdosi bo'yicha ekspertlardan olgan ma'lumotlarga ko'ra, Bolgariya turli siyosiy, iqtisodiy va diniy yo'nalishdagi isyonkor hamda terrorchilik tashkilotlar uchun qurol sotishda jahon markaziy bozoriga aylandi.

«Rosvoorujenie» kompaniyasi 60 ta mamlakatda o'z xaridoriga ega bo'lib, Rossiya qurol-yaroq eksportining 90 foizini ta'minlaydi. Ushbu kompaniya 2,6 milliard AQSh dollari

qiymatida qurol va harbiy uskunalar eksport qilmoqda. Xalqaro strategik tadqiqotlar institutining Londonda taqdim etilgan ma'ruzasida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, jahon miqyosida yiliga o'rtacha 50 milliard dollardan ziyod miqdorda qurol-aslaha sotilar ekan. Qurol-aslaha sotuvchi etakchi davlat AQSh bo'lib qolmoqda. Butun harbiy mahsulotlar eksportining deyarli 50 foizi shu mamlakat hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu sohada 2 – o'rinni Buyuk Britaniya, 3 – o'rinni Frantsiya, 4 – o'rinni Rossiya egallab turibdi.

Dunyo miqyosida xalqaro terrorizm avj olishining yana bir sababi, uni qo'zg'atuvchi omillardan biri – narkobiznesdir. Xalqaro ekspertlar ma'lumotiga ko'ra Afg'onistonda etishtirilib, sotilayotgan narkotik moddalardan kelayotgan 8 milliard AQSh dollari miqdoridagi yillik daromadning naqd bir milliard duniyoda birinchi raqamli xalqaro terrorist – Usama bin Lodinning xisobiga kelib tushar ekan. Narkobiznes ham xalqaro terrorizm bilan egizakdir, undan manfaaddordir va uni yuzaga keltiruvchi omillarda biridir. Narkobiznesga qarshi kurash o'z navbatida xalqaro terrorizm ildiziga bolta uradi.

Terrorizmning amal qilish tamoyili aholi o'rtasida vaqti- vaqti bilan “qo'rqinch instinktini” yuzaga keltirish va shu asosda o'zining g'arazli maqsadlariga erishishdir. Xalqaro terrorizmning har qanday ko'rinishi shu tamoyilga asoslanadi.

Yuqorida bayon qilingan fikr va mulohazalardan quyidagi xulosa va takliflarni bayon qilishni maqsadga muvofiq deb topdik.

1.Terrorizmning har qanday ko'rinishi, u o'z oldiga qanday maqsadni qo'ygan bo'lmasin va qanday ijtimoiy-siyosiy muammolar bilan bog'liq bo'lmasin, o'zining tub mohiyati bilan buzg'unchilik g'oyasiga asoslanadi.

2.Xalqaro terrorizmning har qanday ko'rinishi insoniyat taqdiriga, uning taraqqiyoti va istiqboliga jiddiy xavf solayotgan tahdiddir. Unga qarshi kurashda hech bir inson chetda qolmasligi lozim.

3.Xalqaro terrorizmga qarshi kurash dunyo miqyosida tobora avj olayotgan qurol-yarog' savdosiga va narkobiznesga qarshi kurash yalpi vayron etuvchi qurollarni butunlay yo'q qilish orqali ham amalga oshirilmog'i lozim. O't ochish qurollar savdosini hamma ommaviy qirg'in keltiruvchi kimyoviy va bakteriologik qurollarni ishlab chiqarayotgan mamlakatlarning siyosiy doiralari shuni yaxshi aniqlamoqlari zarurki, o'zlari yaratayotgan bunday qurollardan birinchi navbatda o'zlari jabr ko'rishlari mumkin. Dono xalqimiz iborasi bilan aytganda: «Qilmish qidirmish». Chunki, bunday qurollarning xalqaro terrorchilar qo'liga tushmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi.

4.Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, terrorizmga qarshi kurashning yana bir muhim yo'li: «Xalqimizning tabiatiga mutlaqo yot bo'lgan siyosiy, diniy ekstremizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz oqimlarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka, farzandlarimizning kelajagiga katta xavf tug'dirishini odamlar ongiga chuqur singdirib borish kerak».

5.Terrorizmga qarshi kurash yo'llaridan yana biri, Prezidentimiz ko'rsatib berganlaridek: «Odamlarimiz avvalambor, yoshlarimizni iymon-e'tiqodlarini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash. Ularning taffakurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror topdirish. Ularning men o'zbek farzandiman, deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir».

III. XALQARO TERRORIZMNING VILOYATIMIZDAGI HURUJLARI VA ULARGA QARSHI KURASH, ULARNI OLDINI OLISH

1990 yillarning birinchi yarmida chet eldan kelayotgan yot mafkuraga asoslanib va moddiy yordamidan foydalanib Andijondagi «Jom'e» masjidi imomi Abduvali Mirzaev, uning yordamchisi Kozim Zokirovlar «da'vatchilari» ko'magida viloyatimizda «Vahhobiylik» diniy-ekstremistik oqimini kengaytirish harakatlarini olib bordilar.

Huquq va tartibot organlariga kelib tushayotgan ma'lumotlardan «Vahhobiy»larning amaldagi organlarini keng aholi o'rtasida obro'sizlantirish va uni egallashga qaratilgan harakatlari ma'lum bo'ldi.

1995 yilda viloyatda ro'yhatdan o'tmasdan faoliyat ko'rsatayotgan Andijon shahridagi «Jome'» masjidining faoliyati to'xtatilib, masjid imomi A.Mirzaev bedarak yo'qolgandan so'ng «Vahhobiy»larning qonunsiz harakatlari yanada kuchaydi. Shundan so'ng vahhobiylar yo'l boshchilaridan 11 nafari sodir etgan jinoyatlari uchun javobgarlikka tortiladi. Kozim Zokirov esa tergovdan chet elga qochib yashirindi.

K.Zokirov Qazog'iston Respublikasining Olmota shahrida o'rtnashib olib, 1995 yilda Afg'onistonda «O'zbekiston islom xarakati» jismoniy uyushmasi rahnomalaridan Tohir Yo'ldashev bilan uchrashib, uning moddiy ko'magida o'z atrofiga «Vahhobiy» oqimiga mansub bo'lgan vodiidan kelgan, tergov sud organlaridan qochib yurgan va adashib «Vahhobiy» oqimiga kirgan fuqarolardan jinoiy guruhlar tashkil etgan. Ularni yashash joyi, soxta pasportlar va pul mablag'i bilan ta'minlab, Tojikiston, Afg'oniston, Checheniston harbiy tayorgarlik chegaralariga jo'natilgan. Harbiy tayorgarliklardan o'tib kelganlardan so'ng ularni jamlab, Shuhrat Madaliev va Zafar Mahmudovlar boshchiligida bosqinchi guruhlar tashkil etib, qurollantirgan. 1995 yil dekabridan 1997 yil may oylariga qadar Andijon viloyatida ettita bosqinchilik va uchta qotillik jinoyatlarini sodir etgan. Jinoyatlar evaziga to'plangan mablag'lardan «Baytumul» tashkil etib, «jihod» harakatlarida foydalanishni ko'zlagan.

K.Zokirov topshirig'i bilan Andijonda terroristik portlashlar sodir etish uchun kelayotgan guruh 1997 yil noyabr oyida qo'lga olingan. Bu guruhlar Jamol Turg'unov, Murod Ashurovlarning Andijonda muqaddam sodir etilgan qotillik va bosqinchilarga aloqasi borligi aniqlangan. Bundan tashqari, 1998 yil bahor-yoz oylarida Kozim Zokirovning bosqinchi-qotillaridan etti nafari hibsga olinib, javobgarlikka tortilgan. Aniqlangan 9 nafar boshqa a'zolariga nisbatan qidiruv e'lon qilingan.

K.Zokirov o'z jinoiy faoliyatini jadallashtirib, 1998 yilning ikkinchi yarimi va 1999 yilning boshlarida Andijonda terroristik aktlar sodir qilish uchun portlovchi moddalar va qurol-aslaha yig'a boshlagan.

Sh.Madaliev harbiy qism hizmatchilari bilan jinoiy til biriktirib, Andijondagi harbiy qismdan 14000 dona avtomat o'qlari, 6 dona mina va 300 dona signal raketalarini 4000 AQSh dollariga sotib olgan hamda chet eldan olib o'tilgan 10 dona «RGD - 5» granatasi, 2 ta «Kalashnikov» avtomati va 1 dona «Makarov» to'ppanchasini No'mon Mamayusupov xonadoniga berkitgan.

No'mon Mamayusupov guruhi MXX va IIB xodimlari tomonidan ashyoviy dalil bilan 1999 yil yanvar oyida qo'lga olingan.

K.Zokirov Andijonda hokimiyat va huquqni muhofaza qilish organlarini portlatish uchun Murod Kaziev va Begali Sultonov boshchiligida bir guruh ko'magida 552 kg portlovchi modda tayyorlanib, Abdurahim To'xtaboevning uyi omboriga yashirganlar. Bu jinoiy guruh 1999 yilning 20 mart kuni IIV, IIB va prokratura xodimlari tomonidan ashyoviy dalillar bilan qo'lga olinib javobgarlikka tortildi.

K.Zokirov Andijon viloyatida harbiy qismlarga qurolli hujumlar uyushtirib, qurol va o'q dori olish maqsadida Boqi Soliev, Qodir Soipovlar hamda «Vahhobiy» diniy ekstremistik oqimning boshqa a'zolaridan foydalanib, harbiy qismlar joylashgan va muhim ma'lumotlar bo'yicha 6 dona xarita chizgan. B.Soliev va Q.Soipovlar guruhi 1999 yil 6 aprel kuni ashyoviy dalillar bilan IIB xodimlari tomonidan ashyoviy dalillar bilan qo'lga olinib javobgarlikka tortildi.

K.Zokirov boshliq jinoiy guruhning bir necha a'zolari 1999 yil 16 fevralda Toshkent shahrida terroristik aktlar sodir etganligi va boshqa bir qator og'ir jinoyatlar uchun hibsga olinib tegishli jazoga tortilgan.

2000 yilning 23 avgustiga o'tar kechasi Izboskan tumani Poytug' shahrida Ubaydullo Xolmirzaev boshchiligidagi qurollangan jinoiy guruh a'zolari bilan IIB xodimlari o'rtasida qurolli to'qnashuv bo'lib o'tgan. Jangda 8 nafar jinoyatchilar yakson qilingan, jinoiy guruhga aloqador shaxslar qo'lga olinib jazoga tortilgan.

1995 yilning dekabr oyidan 1997 yilning may oyiga qadar Yunusov, Boltaboev, Rizaev, Qudratov, Hakimov, Hamraqulov xonadonlarida sodir etilgan bosqinchilik Shuhrat Madazimov va Vitaliy Babayantslarning o'z uylarida o'ldirilishi, Andijon shahar IIB DAN xodimi militsiya kapitani Odiljon Rizaev, uning onasi, turmush o'rtog'i ikki nafar o'g'lining otib o'ldirilishi va bu sodir etilgan o'ta og'ir jinoyatlarning o'sha vaqtda ochilmay qolishi viloyatimizda anchagina shov-shuvlarga sabab bo'lgan.

Ushbu jinoyatlar bo'yicha olib borilgan tergov jarayonida ma'lum bo'lishicha, jinoyatchilar bosqinchilik va qotillik sodir etish uchun puxta tayorgarlik ko'rilgan. Qo'llariga qo'lqop, yuzlariga niqob kiyishgan, bosqinchilik uchun tanlangan xonadondagi itlar zaharlab o'ldirilgan. Kirish-chiqish yo'llari o'rganilgan, to'pponcha, pichoq, temir sirtmoqlar hozirlangan, jabrlanuvchi fuqarolar shavqatsizlarcha kaltaklangan va so'ng o'ldirilganlar.

Bu ishda huquq-tartibot tizimi xodimlarini taajjubga solgan narsa, bosqinchilik yo'li bilan olib keltirilgan to'rtta engil avtomashina, bir necha million so'mlik tilla buyumlar va kiyim-kechaklarning qidiruvchi va jiroyatchilar shaxsini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan operativ tadbirlar ijobiy natija bermagan.

1997 yilning 21 noyabrida O'sh viloyati Qadamjoy tumanida Tojikiston tog'laridan norasman o'tib kelayotgan «Vahhobiy» oqimiga mansub andijonlik Surod Ashurov, Jalol Turnurov, Rafuq Toshmatov, namanganlik Sayliddin Hamidovlar militsiya xodimlari tomonidan qo'lga olingan. Ulardan 300 metr portlovchi shnur, 30 dona 6kg.lik trotil shashka, «Qalashnikov» avtomati, 29 dona o'qlari bilan ashyoviy dalil sifatida olingan.

Qo'lga olinganlarni respublikamizga olib kelib o'tkazilgan tergov va operativ tadbirlar davomida ushbu jinoiy guruh chet elda makon topgan islom harakati rahbarlarining topshirig'i bilan Andijondagi O'zDEU avtomobil zavodini portilatish uchun kelayotgan hamda Andijonda sodir etilgan qotillik va bosqinchilik jinoyatlariga aloqadorligi ma'lum bo'lgan.

Jamol Turg'unov ko'rsatmasi asosida Andijonda bosqinchilik va qotillik jinoyatlarini sodir etishda qatnashgan Xotamsher Nazarov, Zohid Dehqonov, Orif Alimov, Muxammadsobir Mamatov, Nodir Umarov, Tal'at Nuraliev, Siroj Shaxobiddinovlar qo'lga olinib, sud organlari tomonidan tegishli jazoga tortilgan.

Ushbu jinoyatlar tergovdan qochib Olmota shahrida yashiringan Kozim Zokirov tashkilotchiligida «Baytumol» uchun moddiy mablag' yig'ish va viloyatimiz hokimiyat vakillarini kuchsiz qilib ko'rsatish maqsadida sodir etilganligi aniqlangan.

Jinoyat sodir etishda ishtirok etganlar Shuhrat Madaliev, Ne'mat Parpiev, Zafar Mahmudov, Sodik Mahmudovlarga nisbatan qidiruv e'lon qilingan.

«Poytug' voqeasi»

2000 yil 22 avgust kuni Izboskan tumani IIB ga «gumonli» shaxslarning to'planayotganligi to'g'risida tushgan operativ ma'lumot asosida IIB xodimlaridan 2 nafari Izboskan tuman Do'stlik ko'chasidagi Mirzaevlar xonadonlariga etib borganlar.

Yig'ilganlarning shaxsini va maqsadini aniqlash vaqtida ular profilaktika nozirini qo'lga olib o'ldirmoqchi bo'lganlar va ov qurolidan o'q otganlar.

Voqea joyiga viloyat IIB boshlig'i, militsiya polkovnigi D.S.Oqmirzaev etib borib, tuzilgan maxsus shtab nomidan uyda yashirib olgan guruh bilan muloqot olib borgan. Viloyat prokurori va milliy xavfsizlik xizmati boshlig'i, Izboskan tuman hokimi ham o'z vakolati doirasida muloqotga qo'shildilar.

Ertalabki soat 5 ga qadar olib borilgan muloqat natija bermagan. Bu orada uyga to'planganlar shaxsi va xonalarning joylashishi to'g'risida ma'lumot yig'ilgan. Jinoyatchilarning qurollanganligi aniqlangan. Uyda ayol va bolalar borligi uchun maxsus vositalarni ishlatish imkoni bo'lmagan.

Sahar soat 5 dan 24 daqiqa o'tganda terroristlarni qurolsizlantirish tadbiri boshlangan, soat 5 dan 27 daqiqa o'tganda viloyat IIB JTSB boshlig'i, militsiya polkovnigi Hoshimov Baxodirjon jinoyatchilar otgan o'qdan halok bo'lgan, keyingi 10 daqiqa ichida shturmda 6 nafar jinoyat

qidiruv xodimlari va maxsus otryad militsionerlaridan 6 nafari o'q otar qurollaridan jarohat olganlar.

Soat 6 da jinoyatchilar tirik qalqon qilib olgan ayol va ikki nafar bolalar ozod etildi. Ikki soat davom etgan jangda sakkiz nafar terroristlar butunlay yakson qilindi.

Voqea joyini ko'zdan kechirish davomida: terroristlar foydalangan 4 dona ov miltig'i, 6 dona 1,5 dyumlik trubadan ishlangan qo'lbola o'q otar qurol, 19 dona jangavor patron, 50 dan ortiq otilgan patronlar, 600 gr. Poroh, 5 kg.drob, 100 dona 5,6 kalibrlik o'q, 2 dona «RGD - 5» jangavor granata, 2 dona qo'lbola xanjar olindi.

Holat yuzasidan qo'zg'atilgan jinoiy ish bo'yicha tergov davomida izboskanlik Xolmirzaev Ubaydilla uzoq vaqtlar Tojikiston va Afg'oniston harbiy lagerida bo'lib qaytib, Izboskanga kelib, yoshlarni diniy o'qishga olib ketish bahonasida o'sha vaqtda respublikamiz chegaralariga tashqaridan terroristik tahdidlar bo'layotganligi va bu harakatlarga ichkaridan yordam berish uchun vahhobiy diniy oqimi tarafdorlaridan bir guruhini to'plab, qurol-aslaha bilan bog'liq ob'ektlarga hujum qilishni rejalashtirgani aniqlandi.

Ish yuzasidan 33 joyda tintuvlar o'tkazilib daliliy ashyolar olingan. 26 nafar jinoyatga aloqador shaxslar hibsga olinib, ulardan 21 nafari viloyat sudi tomonidan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazoga tortilgan.

«Jihod» nomi ostida terrorga tayorgarlik

Olingan operativ ma'lumotlar asosida Andijon viloyati IIB xodimlari tomonidan 1999 yil 6 aprel tongida fuqaro Paxridinovga tegishli Andijon shahar Mirzaev ko'chasi 8 – uyda (ilgari portlovchi moddalar tayyorlashda ishtiroki uchun qidiruvda bo'lgan) diniy ekstremistik oqim a'zolari Soipov Qodir va Soliev Boqilar qo'lga olingan.

Ulardan «Stechkin» to'pponchasi, ovoz pasaytirgichi va 68 dona 5,6 mm. o'qi, «TT» to'pponchasi, 16 dona 7,62 mm. o'qi, «Makarov» to'pponchasi, 3 dona «F - 1» jangavor granatasi hamda Andijon viloyatida joylashgan harbiy qismlarning qurol-aslahalari, harbiy postlar va boshqa muhim ob'ektlari haqida ma'lumotlar tushirilgan harbiy qismlarga hujum qilib, ulardagi qurol-aslahalarni egallab, kelgusida viloyat terroristik harakatlar sodir etishlik uchun mo'ljallangan 6 dona xarita, Xataxonov Ulug'bek (Soipov Qodir surati bilan) va Tashtemirov Murodjon (Soliev Boqi surati bilan) nomiga berilgan Qirg'iziston Respublikasi soxta pasportlari olingan.

Q.Soipov va B.Solievlardan olingan qurollarni ballistik ekspertizasidan o'tkazish natijasida «Stechkin» to'pponchasidan 1997 yil 23 martga o'tar kechasi Andijon shahar Bog'ishamol dahasida Andijon shahar IIB DAN xodimi militsiya kapitani Rizaev Odiljon, uning onasi, xotini va ikki o'g'lini otib o'ldirishda foydalanganligi aniqlangan.

Q.Soipov va B.Solievlar sodir etgan jinoyatlari uchun 1999 yil iyul oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan «oliy jazo»ga mahkum etilgan.

1999 yil 16 fevralda Toshkentdagi terroristik aktlar uchun portlovchi moddalar tayorlagan Sultonov Begali ko'rsatmasiga asosan O'zbekiston Respublikasi IIV va viloyat IIB xodimlari tomonidan 1999 yil 20 mart kuni To'xtaboev Abdurahimga tegishli Andijon shahar A.Xaydarov ko'chasi 78-uy omboridan 552 kg portlovchi moddalar olingan.

Tergov jarayonida bu portlovchi moddalarning 1999 yil yanvar, fevral oylarida «O'zbekiston islom harakati» deb nomlangan jinoiy uyushmaning rahnamolari Tohir Yo'ldoshev va Kozim Zokirovning rejasiga asosan Murodillo Kaziev topshirig'iga binoan Begali Sultonov boshchiligidagi Husniddin Zikirdinov, Qodir Soipov, Boqi Soliev, Aziz Karimov va Ne'mat Karimovlar tomonidan Husniddin Zikirdinovning Andijon shahar Maybog'cha ko'chasida joylashgan uyida tayyorlangan portlovchi modda uchun 450 kg selitra va 150 kg oltingugurtni Andijon qishloq xo'jaligi instituti ilmiy ishlab chiqarish xo'jaligi raisi Nuriddin Nasirdinov ruxsati bilan xo'jalik omborchisi Turg'unboy Qo'chqorovdan, 50 kg alyumin kukunini esa Eski shahar temirchilik bozoridan sotib olishgani aniqlangan.

Tayyor holga keltirilgan viloyatimizda hokimiyat va huquqni muhofaza qilish idoralarini portlatish uchun mo'ljallangan 11 ta shakar qopiga joylashgan portlovchi modda Aziz Karimovning otasi Ahmad Karimovga tegishli uyning erto'lasida saqlangan, keyinchalik Abdurahim To'xtaboevning uyi omboriga ko'chirilgan.

Viloyatimizda terroristik aktlar sodir qilish uchun 552 kg portlovchi modda tayyorlashda bevosita ishtirok etgan jinoyatchilardan Murodilla Kaziev va Aziz Karimovlar tergov va sud organlaridan chet elga qochib yashiringan, qolgan ishtirokchilarning barchasi hibsga olinib, tegishli sud organlari tomonidan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazoga tortilgan.

Qirg'iziston Respublikasining Bishkek va O'sh shahrida bir necha fuqarolar o'limiga sababchi bo'lgan terroristik portlashlarni sodir etgandan so'ng Aziz Karimov, viloyat IIB xodimlari tomonidan 2003 yil 11 may kuni Andijon shahar Olmazor ko'chasi 3-uyda hibsga olingan va tergov organlariga taqdim etilgan. 2004 yil aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tomonidan Aziz Karimov oliy jazoga hukm qilindi. «Qilmish-qidirmish» deganlari shu bo'lsa kerak.

XULOSA

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ko'plab qadimgi diniy-ma'daniy obidalar tiklandi, ta'mirlandi, qayta qurildi, yangi yodgorlik majmualari yaratildi. Buyuk mutafakkirlirimizning yubileyi mamlakatimiz va jahon miqyosida keng nishollandi. Ro'za va Qurbon hayitlari bayram kunlari deb e'lon qilindi. Davlat tomonidan haj safariga borish uchun keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratildi. Islom dini millionlab kishilarning dunyoqarashi mazmunini tashkil etgan holda ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga etkazishda beqiyos ahamiyatga egadir. Diniy ekstremizm va terrorizm g'oyalari ta'siriga berilgan kimsalar har qancha urinmasinlar muborak islom dini, xalqimizning kelajakka bo'lgan ishonchi, e'tiqodini, tinchligimizni oyoqosti qilolmaydilar hamda o'zbek xalqini o'zi tanlab olgan demokratik taraqqiyot yo'lidan qaytara olmaydilar. Zero, xalqimiz islom dinidan o'zlarining qabih siyosiy maqsadlari yo'lida foydalanmoqchi bo'lgan buzg'unchi kuchlarning asl maqsadini anglab etdi va mamlakatimizda olib borayotgan vijdon erkinligi, diniy bag'rikenglik va demokratiyaga asoslangan dunyoviy davlat qurish siyosatini to'la qo'llab - quvvatlamoda.

Fuqorolarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish. Tarix o'zga hududlarni zabt etish maqsadida ishlatiladigan urush qurollari uzluksiz takomillashib borayotganini ko'rsatadi. U nayzalardan tortib avtomatik qurollargacha, zambaraklardan tortib Er yuzining har qanday nuqtasiga bexato etib boradigan qit'alararo ballistik raketalarigacha bo'lgan uzoq takomil yo'lini bosib o'tdi. Bu qurollar bosib olinishi kerak bo'lgan hududlar aholisini jismonan yo'q qilishga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, o'zga hududlarni zabt etish uchun ularning aholisini mahv etish shart emas. Zero, ongi va shuuri zabt etilgan, qarash va kayfiyatlari «ma'qul» yo'nalishda o'zlashtirilgan erlik aholini ko'magida har qanday boylik, tabiiy resurslarga egalik qilish mumkin bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimiz ichida o'zlarining g'ayriinsoniy va g'ayriislomiy g'oyalirini tarqatishga harakat qilayotgan diniy ekstremistlar ham ana shunday g'arazli maqsadlarini, ya'ni yoshlarni chalg'itib, ular yordamida mamlakatni o'z taraqqiyot yo'lidan chetlatib yuborishga intiladilar.

Yuqoridagi mulohazalardan ham kishilar qalbi va ongini egallash g'oyaviy kurashning bosh maqsadiga aylanganligini anglab etish mumkin. «Bugungi kunda, -deb yozadi Yurtboshimiz,- insoniyat qo'lida mavjud bo'lgan qurol – yarog'lar er qurrasini bir necha bor yakson qilishga etadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etadigan mafkuraviy kurashdir. Endigina yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi. Bu achchiq haqiqatni hech qachon unutmaslik lozim».

Markaziy osiyoda barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solayotgan diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar So'ngi o'n yilliklar mobaynida dunyoda din omilining faollashuvi sovetlardan keyingi makonda ham o'z aksini topdi. To'g'ri, ma'muriy buyruqbozlik tizimi hukumronlik qilgan sharoitda ham diniy hayot hech qachon to'xtab qolgan emas. U g'oyat o'ziga shaklu-shamoyil kasb etgan edi. Biroq o'tgan asrning 80 – yillari oxiri va 90 – yillardan keyin, bir tomondan, jamiyatda dinning mavqei qayta tiklangan, ikkinchi tomondan esa, yana shu asosda mojarolar chiqishiga sabab bo'ldi. Masalan:

Birinchidan, Markaziy Osiyodagi davlatlarning mustaqillikka erishuvi tufayli mintaqamizda islom omili va uning xilma-xil ko'rinishlari faollashdi.

Ikkinchidan, komunistik mafkura ma'naviy qashshoqligi va millatlarga qarshi qaratilganligi bilan sho'ro hokimiyatidan keyingi makonda diniy fundamentalizm, aqidaparastlik uchun sharoit yaratdi.

Uchinchidan, sobiq SSSRdagi hukumron komunistik partiya xalqlarining aql-idrokini egallashda islom dinini o'zining raqibi deb bilardi. Shu sababli ham KPSS butun faoliyati

davomida dinni kamsitish, ruhoniylarni yo'qotish uchun keskin choralar ko'rdi. Din sun'iy ravishda mafkuraviy kurashning qizg'in jabhalaridan biriga aylandi.

Shu sabablarga ko'ra, Markaziy Osiyodagi respublikalarda chin ma'nodagi bilimdon islom ma'rifatchilari kamayib ketgan edi. Natijada chalamulla islomchilar paydo bo'ldi, har xil xurofiy irim-sirimlar, ba'zan jaholatparast udumlar rivoj topdi. Bunday «chalamullalar» hozirgi kunda o'zlarini islom dinining yagona himoyachilari atab, oddiy xalq ongini sohta g'oyalar bilan chalg'itishga urinmoqdalar.

Bundan tashqari, ba'zan islom dinidan siyosiy kurash uchun, ommaning siyosiy ongiga ta'sir ko'rsatish vositasi quroli sifatida foydalanishga intilish ham kuzatilmoqda. Chunonchi islom dinidan hokimiyat uchun kurash quroli sifatida foydalanish harakatlari mavjud. Ana shunday sharoitda vahhobiylilik kabi g'oyalarning aldamchi jozibasi o'zini yaqqol namoyish etmoqda. Turg'unlik, tanglik va jamiyatning parchalanish yillarida ajnabiy vahhobiylilikni ommaga yoyish yo'lidagi urinishlari adolatni yuzaki tushunib targ'ib qilishda, islomning ma'naviy-ahloqiy me'yorlariga qattiq rioya etishni talab qilishda hamda zeb-ziynatdan va manfaatparastlikdan voz kechishni e'lon qilishda namoyon bo'lmoqda. Afsuski, bunday da'vatlar Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida hozirgacha davom etmoqda.

Sir emaski, O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari g'oyat murakkab ko'p qirrali Islom dunyosining ajralmas qismidir. Hozirgi kunda ham bu mintaqada rasmiy va norasmiy islomiy harakatlar mavjud. Ular yo islomning ustunligini tan olish, yoki boshqa barcha dinlarga nisbatan murosasizlik, yohud islom dinidan tor milliy manfaatlarni himoya qilishning quroli sifatida foydalanishga tayanib, bu muqaddas dinni o'z siyosiy maqsadlariga bo'ysundirmoqchi bo'ldilar.

Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlarini o'z siyosiy tarafdorlari va ittifoqchilari safiga jalb qilishga, ularga o'z ta'sirlarini yoyishga intilish bunday kuchlarning mafkuraviy yo'l-yiriqlarigagina xos bo'lmay, balki mutlaqo aniq-ravshan harakatlar tusini olmoqda. Islom omili kuchayishining yuqorida sanab o'tilgan asosiy sabablari O'zbekistonda diniy hayotning faollashuv jarayonlarini tushunishga ham to'la taalluqlidir.

Markaziy Osiyoda in qurgan diniy ekstremistik va terroristik oqimlar, tashkilotlar faoliyatiga to'xtaladigan bo'lsak, dastavval, shuni qayd etish lozimki, umuman olganda diniy ekstremizm mintaqada yashirin, ammo nisbatan passiv, kengroq ochiq-oshkora tashviqot va zo'rovonlikka asoslangan faol harakatlar, so'ng unga qarshi qaratilgan chora-tadbirlar natijada yana o'ta mahfiy ishlar asosida targ'ibot olib borish va aniq qo'poruvchilik xurujlarini sodir etish kabi bosqichlarni bosib o'tdi. Bircha diniy-islomiy ekstremistik harakatlar o'z oldilariga tinch-osoyishta davlatda murakkab, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-marifiy vaziyatni inqirozga keltirish yo'li bilan hokimiyatni egallash va o'z hokimiyatini o'rnatish maqsadini qo'yadilar. Lekin unga erishishda har bir diniy ekstremistik harakat, tashkilot o'ziga xos yo'l va vositalardan foydalanadilar.

XX asrning ohiri va XXI asrning boshlarida mintaqamizning turli hududlarida va, umuman, sayyoramizning boshqa ayrim xududlarida yuz berayotgan terroristik harakatlar, shular tufayli minglab begunoh odamlarning halok bo'lishi jahon jamoatchiligini jiddiy tashvishga solmoqda. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, bugungi kunda xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash dunyo mamlakatlarini birlashtiradigan asosiy omil bo'lib qolmoqda. XXI asr vabosi bo'lgan ushbu illatga qarshi jahon hamjamiyatining murosasiz kurashini O'zbekiston to'la qo'llab quvvatlaydi. Eng muhimi, islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayorlash bo'yicha konveylar tashkil etayotgan, xalifalik tuzishdek turli xomhayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash kerak. Bu xalqaro terrorizmn ota-bobolarimizdan qolgan muqaddas dinimiz-islom dini bilan bog'lashdek havfli niyat va urinishlarni keskin qoralaymiz.

Bunday oqibat o'ylamagan va ig'vogarona xatti-xarakatlar birinchi galda "Al-qoida" yoki "Hizbut-tahrir" kabi eng ashaddiy ekstremistik harakat va tashkilotlarga qo'l keladi xolos. Vazifa

- bag'ri keng islom diniga musulmonlikni niqob qilib olib, uning ustidan hukumronlik qilishga urinayotgan jangari, mutaassib kuchlarga qarshi kurashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: «O'zbekiston», 1997 yil.
2. I.A.Karimov. Olloh qalbimizda, yuragimizda. - T.: «O'zbekiston», 1999 yil
3. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Z.Xusnidinov muharririligida. - T.: "Toshkent Islom universiteti" nashriyoti, 2001 y.
4. K.Yunusov, K.Mirzakarimov, N.Ulug'jonov, Sh.Asqarov, I.Axmadjonov, M.Yunusova. Halqaro terrorizm – insoniyatga suiqasd. - Farg'ona., "Farg'ona" nashriyoti 2004 y.